

INGLIZ VA O'ZBEK XALQ MAQOLLARIDA DO'STLIK TUSHUNCHASI TAHLILI

Gafurova Nozimaxon Ikramovna

Farg'ona Davlat Universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti,

Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası katta o'qituvchisi

Sobirjonova Gulhayo Dilmurod qizi

Farg'ona Davlat Universiteti

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, 4-kurs talabasi

Annotation

In this article, proverbs related to friendship from Uzbek and English folklore are discussed and analyzed.

Keywords: proverb, folklore, culture, friend, wealth, friendship.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbek va Ingliz xalq maqollarida do'stlik tushunchasi ishtirok etgan maqollar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maqol, xalq og'zaki ijodi, madaniyat, do'st, boylik, do'stlik.

Kirish

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan ko'hna ijodiy faoliyat sohalaridan biridir. Hozirgi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish, suvning inson hayotidagi o'rni haqida gapirishdek muhimdir. Inson hayotini suvsiz tasavvur qilolmagani kabi, tarjimasiz ham turli xalqlarning bir-biri bilan bo'lgan aloqasini, bu aloqasiz esa taraqqiyotni tasavvur qilolmaymiz. Tarjimaga xalqlarni o'zaro bog'laydigan, ularning madaniyatini rivojlantiradigan hamda hamkorligiga asos bo'ladigan ko'prik sifatida qarashimiz mumkin.

Maqol - xalq og'zaki ijodi janri; qisqa va lo'nda, obrazli va obrazsiz, grammatik va mantiqiy tugallangan ma'noli hikmatli ibora. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatları mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan. Endi esa, Ingliz tilida maqolga berilgan ta'rifga to'xtalamiz. A proverb is a short, pithy statement that usually offers life advice, wisdom, or a truth. Proverbs can offer a shortcut for explaining or imparting information as well.

Quyida O'zbek xalq maqollari va ularning Ingliz tilidagi ekvivalentlari bilan tanishib chiqamiz:

1. Do'stlik oltinga sotilmas, Mehmon-pulga.
Friendship is not to be brought at a fair.
2. Do'st do'stning oynasi.
A man is known by the company he keeps.
3. Ablah do'st dushmandan yomon.
Better an open enemy than a false friend.
4. Do'stlar o'rtasida "meniki" bo'lmas.
Between friends all is common.
5. Kiyimning yangisi yaxshi,
Do'stning – eskisi.
Old friends and old wine are best.
6. Tor yer do'stlar bilan maydon bo'lur, Keng yer dushman bilan – zindon. Friends both in heaven and hell, it is good to have some.

Do'stlik barcha millatlarda birdek ulug'lanadi va e'zozlanadi. Do'stlik - oltindan qimmat, pul bilan o'lchab bo'lmaydigan bebaho narsa. Do'stlikni saqlash yer yuzidagi barcha xalqlarning, katta-yu kichik – hammaning hayotiy vazifasidir. O'zbek tilida do'stlik haqida maqollar bir talay bo'lganidek, ingliz tilida ham do'stlik tushunchasi ishtirok etgan maqollar ko'plab uchraydi. Yuqorida keltirilgan birinchi *“Do'stlik oltinga sotilmas, Mehmon-pulga”* maqoliga to'xtaladigan bo'lsak, darhaqiqat, biz uchun do'stlik bebaho ne'matdir va do'stlikni hech qachon biror boylik orqali qo'lga kirita olmaymiz. Do'stlikni pulga sotib ololgan taqdirimizda ham bu do'stlik chinakam do'stlik bo'la olmaydi. Chunki, biz boylik bilan erishgan bu do'stimizga, vaqti kelib boshqa bir odam ham shu yo'l bilan ega chiqishi mumkin. *“Friendship is not to be brought at a fair”* – ingliz tilida ham xuddi shunday. Faqat ingliz tilida **oltin** so'zi o'rniga **fair** ya'ni ko'rgazma, yarmarka so'zi qo'llanilgan va o'zbek tilidagi maqol bilan bilan bir xil ma'noni kasb etmoqda.

“Do'st do'stning oynasi” maqoliga yuzlanadigan bo'lsak, o'zbek tilida bu maqolning bir qancha ko'rinishi mavjud. Misol uchun: *“Do'stningni kimligini ayt, men senga kimligingni aytib beraman”*. Bilamizki, inson o'ziga mos, uni tushuna oladigan, fe'l-atvori bir-biriga to'g'ri keladigan inson bilan do'st bo'ladi. Biz do'st bo'lgan inson orqali, atrofdagilar biz haqimizda xulosa qilishadi. Ingliz xalq maqolida esa ushbu maqol: *“A man is known by the company he keeps”* ya'ni *“Kishi qaysi jamoadaligiga qarab bilinadi, taniladi”* ko'rinishida uchraydi va bir xil ma'no kasb etadi.

Keyingi tanlab olingan maqolimizga nazar solsak: *“Ablah do'st dushmandan yomon.”* Insonni do'sti bor ekan, u doim kuchli bo'ladi. Agar do'stlik yaxshilik uchun qurilgan bo'lsa, bu do'stlik qudratli kuchga aylanadi. Lekin oramizda shunday insonlar ham borki, ular siz bilan biror manfaat uchun do'st bo'lishadi ular soxta do'stlardir.

Sizdan manfaat ko'rmagach boshqa do'st izlashga tushadi. Yuqoridagi maqolda ham xuddi shunday "do'st" nazarda tutilgan. Ushbu maqolning ingliz tilidagi ekvivalenti: "Better an open enemy than a false friend." Bu maqolning tarjimasini: "Soxta do'stdan ochiq dushman yaxshi" ko'rinishida bo'ladi. Bunda o'zbek tilidagi **ablah do'st** so'zi o'rniga **false friend** birikmasi qo'llanilgan.

Xulosa

Do'stlik tushunchasi ikki millat uchun ham birdek qadrlidir va do'stlik haqidagi maqollar o'zbek va ingliz adabiyotida asosiy o'rinni egallaydi. Ular stilistik, semantik va boshqa jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Do'stlik haqidagi maqollar orqali ikki davlatning madaniyati, mentaliteti va urf-odatlar aks ettiriladi va ushbu ikki millat tilida muhim o'rin tutadi. O'zbek va ingliz tilida do'stlik haqidagi maqollar xilma-xildir va ikki tildagi maqollarning ekvivalentini topish biroz mushkuldir. Shuning uchun maqollar kontekstga va ma'no va mazmun jihatdan bir-biriga to'g'ri kelishiga qarab tanlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov.- Toshken. 2012.
2. O'zbek xalq maqollari. (Tuzuvchilar: T.Mirzayev, A.M Usoqulov, B.Sarimsoqov; Mas'ul muharrir: Sh.Turdimov.) – Toshkent, Sharq, 2005.
3. O'zbek va ingliz xalq maqollarida do'stlik tushunchasi masalalari. N.Abdullayeva. "Scientific progress" scientific journal. Issue: 1. P.377.
4. Yosh tarjimashunos, V. "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" va "Sinxron tarjima" mutaxassisliklari magistrantlari hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalarining yillik an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – T., 2020.
5. Norrick N.R. How proverbs mean. Berlin: Mouton, 1985.
6. <https://www.grammarly.com>
7. <https://uzbaza.uz/dost-dostlik-va-dushmanlik-haqida-maqollar/>
8. <https://uz.m.wikipedia.org>
9. <https://maqollar.uz/cards/>